

**TALABA-YOSHLAR TA'LIM DASTURIDA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLARNI O'RGATISH METODOLOGIYASI****O'tkir Mavlonov**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Ijtimoiy va gumanitar fanlar" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv jarayonida yoshlar ta'lim va tarbiyasiga ehtiyojning ortishi, kelajak avlodni voyaga yetkazishning asosiy tamoyillari va unda ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rni ko'rsatilgan.

Annotation: This article shows the growing need for education and training of young people in the context of globalization, the basic principles of educating the younger generation and the role of social sciences in it.

Аннотация: В данной статье показана возрастающая потребность в образовании и обучении молодежи в условиях глобализации, основные принципы воспитания подрастающего поколения и роль в нем общественных наук.

Kalit so'zlar: barkamol, tafakkur, yoshlar, tarbiya, ijtimoiy fan, dunyoqarash, salohiyat, O'zbekiston, oliy ta'lim, kasb.

Key words: perfection, thinking, youth, education, social sciences, outlook, potential, Uzbekistan, higher education, profession.

Ключевые слова: совершенство, мышление, молодежь, образование, общественных наук, мировоззрение, потенциал, Узбекистан, высшее образование, профессия.

Globalashuv jarayonida inson kapitalini kuchaytirishga bo'lgan ehtiyojning ortayotganligi bois, uning to'laqonli bo'lishidagi asosiy omillarni chuqur tahlil qilish zarurati mavjuddir. Bu omillar asosida sifatli ta'lim va tarbiya berish, kelajakda kasb kori shug'ullanish, o'ziga xos munosib turmush sharoitini yaratish muhim sanaladi. Chuqur bilim hamisha inson kapitali takomilida alohida ajralib turuvchi mexanizmdir. Xo'sh, bugungi davr yoshlarini qanday fan dasturlari asosida o'qitmoq hamda qaysi tamoyillar asosida tarbiyalash lozim?! Ularga qaysi fanlarni chuqur o'rgatish kerak degan savollar hozirgi davrning muhim masalalaridan biridir. Aslida fanlarni —kerak| yoki —keraksiz|ga ajratish mumkinmi? —Fanlar zaruratil| masalasi zamonaviy matbuotda kam o'rganilgan masalalardan biri. Shu nuqtai nazardan keyingi paytlardan uni o'rganish dolzarb vazifalardan sanaladi. Buning eng asosiy sabablaridan birijamiyatda har bir fanning zarur ekanligi falsafasi yaratish, uni yoshlar ongiga chuqur singdirishda muammolar mavjudligida namoyon bo'lmoqda.

Davlat va jamiyat rivojida fanlar orqali bilim berish va olish ham o'ziga xoslikka ega. Hozirgi davrda dunyo miqyosida fanlarni takomillashtirish, ta'lim tizimini rivojlantirish masalalariga kompleks-sistemali yondashuvning tendensiyalari ko'zga tashlanmoqda, negaki —...inson nihoyatda xilma-xil real va noreal munosabatlar maydonida yashaydi, umr kechiradi, maqsad muddaolariga erishadi.

Zamonamiz odamlarini mazkur munosabatlar maydonida qay yo'lni ustuvor tutganlariga qarab o'rganilsa, tahlil-tadqiq etilsa g'oyatda muhim va ahamiyatli xulosalar kelib chiqadi|[1]. Tabiiyki, fanlar tizimida ijtimoiy fanlarning alohida o'rni bor. O'sib kelayotgan avlodning ongida demokragik qadriyatlarni mustahkamlash, o'z qarashlari va qat'iy fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, har tomonlama yetuk va mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo'yar ekanmiz, mavzuimizning dolzarbligini quyidagicha belgiladik: Birinchidan, hozirgi inson

qalbi va ongi uchun kurash ketayotgan bir paytda samarali mehnat qiladigan, har qanday tajovuzkor g'oyalarga qarshi turadigan, yurt taraqqiyotiga daxldorlik va kelajak oldida o'z mas'uliyatini his qiladigan avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash dolzarflik kasb etmoqda. Ikkinchidan, yoshlar mamlakatning muhim strategik resursi ekanligini hisobga olib, ularning ta'lim va tarbiyasiga xos muammolarni o'rganish davlat siyosati darajasidagi muhim masaladir. Uchinchidan, —...ijtimoiy fanlarga e'tibor bermaslik oqibatida dunyoqarashi bir tomonlama shakllangan, o'zidan boshqani o'ylamaydigan, xalq, davlat va jamiyat tushunchalaridan begona bo'lgan va bugungi kunda chet ellarda —Boy berilgan avlodl deya atalayotgan yoshlar avlodi bizda ham vujudga kelmaydimi?||[2].

To'rtinchidan, yoshlar tafakkuri yangilanishida ijtimoiy fanlar ahamiyatini ko'rsatish nafaqat yoshlarning bunga munosabati, shuningdek, yo'nalish pedagoglarining saviyasi hamda pedagogik mahorati bilan ham belgilanishi ta'kidlash lozim. Bugungi tezkor davrda texnik taraqqiyot hamda informatsion oqimning kuchayishi natijasida yoshlarning qadriyatlar haqidagi tushunchalariga, o'z yurtiga sodiqlik tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatib, ularning ijtimoiy hayotga real munosabatda bo'lish va moslashuvida ayrim muammolarni keltirib chiqarmoqda. Mana shu muammolarda dunyo davlatlari taraqqiyotiga xavf tug'dirayotgan huquqbuzarlik va jinoyatchilik, giyohvandlik, odam savdosi, diniy ekstremizm illatlari ko'proq yoshlar orasida kuzatilyotganligi tashvishlantirmoqda. Eng avvalo yoshlar har bir axborotni ko'rko'rona qabul qilmasdan, chuqur mushohada qilishi, kerakli xulosa chiqarishini ta'minlash zarur.

Negaki, yoshlar ko'p vaqtini ta'lim maskanlarida o'tkazishadi. Ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan fanlar eng avvalo mana shu jihatlarga e'tibor qaratishi lozim. Albatta, unib kelayotgan avlod tafakkurida rivojlanayotgan dunyo manzarasini aqlli idrok qilish, siyosiy voqyeliklarni anglashda ijtimoiy fanlar alohida o'rin egallaydi. Biroq, ayrim mutaxassislar orasida —yoshlar tanlagan

kasbini chuqur bilsa bo'lsa, kasbiy fanlardan boshqasi shart emas deb hisoblaydiganlari ham bor, afsuski. Respublika rahbari —Yangi O'zbekiston strategiyasida shunday ta'kidlaydi: —Afsuski, ayrim kaltabin mulozimlarning —Ijtimoiy fanlardan foyda yo'qlig'idagi nojo'ya qarashlari oqibatida ushbu fanlarning salmog'i va sifatini tushirib yuborishiga yo'l qo'yildi...Bugungi kunda yoshlarni asosan, chet el andozalari, g'oyasizlik tamoyillari va ijtimoiy fanlar tizimi qariyb yo'qotilgan ta'lim ta'sirida shakllantirish tarafdorlarining ko'pchiligi yaqin kelajakda ushbu avlodning asl qiyofasi, davlat va jamiyatga munosabati qayday bo'lishi haqida yaxlit tasavvurga ega emaslar, deb o'ylayman[3].

Tarixiy taraqqiyot davomida ta'lim va tarbiya eng muhim - o'zak masalalardan bo'lganligi bois, uning to'g'ri yechimida ijtimoiy fanlarni chuqurroq o'qitish aktuallashtirib bormoqda. Xo'sh,aslida ijtimoiy fanlar yosh avlodga nima beradi? Nimani o'rgata oladi?! Birinchidan, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy tasavvuri, dunyoqarashi to'liq shakllanmaganligi bois ularning yot g'oyalar ta'siriga tushib qolish ehtimoli yuqoriroq. Shu nuqtai nazardan mamlakat barqarorligi va taraqqiyoti ko'p jihatdan muhim kuch sanalgan – hozir zamon avlodidan qay darajada samarali foydalana olishi mexanizmi ijtimoiy fanlar ko'lamida o'rgatiladi. Ikkinchidan, inson kapitalini kuchaytirishga ehtiyoj sezilgan hozirgi davrda yurt farovonligi yo'lida xizmat qiladigan yuksak intellektual salohiyatga ega avlodni tarbiyalash uchun ular tafakkurida qat'iy fuqarolik pozitsiyasi hamda o'z —menini topa oladigan jihatlarni shakllantirish zarur. Bu sa'y-harakatlar ham ijtimoiy fanlarni o'qitish orqali amalga oshiriladi.

Uchinchidan, —Biz zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallagan avlodni tayyorlashimiz kerak. Tabiiy-texnik va ixtisoslik fanlari bunday mutaxassislarni tayyorlash uchun asosiy omil ekani ham shubhasiz. Ammo yangi avlodni xalq va jamiyat, millat va davlat manfaatlarini ko'zlaydigan, o'zini yurt manfaatlarini bilan birga ko'radigan va islohotlarga daxldorligini, ijtimoiy mas'ulligini sezadigan, yetuk

inson etib tarbiyalash uchun ushbu fanlarning o'zi kifoya qiladimi? Yo'q, albatta[4]. To'rtinchidan, milliy o'zlikni anglash, ajdodlar merosiga vorislik taraqqiyot davomiyligida mamlakat tinchligini ta'minlashda asosiy mezondir. Albatta, milliy o'zlikni anglash o'z ona Vatani tarixini chuqur bilish bilan tavsiflanadi. Zero, —Tarixga sergak qaragan odamgina doimo xushyor va ogoh bo'lib yashaydi. Bugungi vaziyatga ham, kelgusi jarayonlarga ham xolis va haqqoniy baho bera oladi. Bu esa hozirgi murakkab va shiddatli zamonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, yuksak taraqqiyotga erishining eng muhim shartidir[5].

Beshinchidan, ta'lim olayotgan yoshlar bo'lajak mutaxassislar. Ular o'z kasbi doirasida juda ko'plab odamlar bilan muloqat qiladi. Ijtimoiy fanlar ana shu muloqat madaniyatini chuqur o'rgatadigan, uni hayotga tatbiq etishdagi asosiy fan sirasiga kiradi. Respublikamizda Ijtimoiy fanlarni rivojlantirish va chuqur o'rganishga Prezidentimiz alohida e'tibor qaratmoqda. Jumladan, 100 maqsadni o'z ichiga olgan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida muhim vazifalar belgilangan bo'lib, ayni payt va istiqbolda Ijtimoiy fanlarning o'rni nechog'li zarur ekanligini belgilab bergan[6]. Bu mamlakatimizda barcha Ijtimoiy fanlarni rivojlantirish, uni yoshlarga chuqur o'rgatishda muhim dasturamaldir. Shuningdek, —Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur. Buning uchun avvalo, O'zbekistonda tarix fanini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini samarali amalga oshirishimiz lozim[7]. Shular qatori Jahon falsafasi qomusining chop etilishi ham Ijtimoiy fanlarga bo'lgan e'tirofning yaqqol ifodasidir[8].

Prezidentimizning e'tibori, bu borada olib borilayotgan islohotlar va yaratilayotgan shart-sharoitlar Ijtimoiy fanlar professor-o'qituvchilariga faxrlanish hissini berish bilan birga mas'uliyat ham yuklaydi. Ijtimoiy fanlarni o'qitishda zamonaviy yutuqlarni o'zida mujassam etgan ilg'or va innovatsion usullar asosida mashg'ulotlar o'tkazish davr talabidir. Shu nuqta nazardan yoshlarda mustaqil

ishlash, manbalar qidirish motivatsiyasini ko'chaytirish, olib borilayotgan mashg'ulotlarning sifatiga e'tibor qaratish, takomillashtirish indikatorlarini ishlab chiqish shular jumlasidandir. Donishmandlar biri —Maqsad emas, balki unga yetish vositalari hal qiluvchi o'rinni egallaydil degan edi[9]. Bizning nazarimizda ham maqsadlar ro'yobida vosita mukammallashtirilsa amaliy ahamiyati yaqqolroq seziladi. Ijtimoiy fanlarni o'qitishida keng jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari, oila, mahalla va shu kabilar bir biriga yelkadosh bo'lib, izchil intergatsion muhitni yaratish ham ko'zlagan maqsadlarga yetishishning muhim manbasi bo'ladi. Mavzuga doir maqolaga quyidagi xulosani berishni lozim deb topdik: -ta'lim tarbiyada

Ijtimoiy fanlarni o'qitishning gumanistik xarakterini umuminsoniy manfaatlar negizida rivojlantirish uning samaradorligini belgilaydi; -xalqaro hamkorlikda Ijtimoiy fanlarni o'qitishga doir Dastur va loyihalar qabul qilish barkamol avlod tafakkuri rivoji, kasbiy mahorati ortishi, ijtimoiy-siyosiy, madaniy almashuvchanlik, eng muhimi —jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashiga ko'mak beradi; - Ijtimoiy fanlarni rivojlantirishning pedagogik, didaktik, targ'ibot usullarini zamonaviy innovatsiyalar hamohangligida olib borish va axborotlashtirish ijtimoiy turmush yangiliklarining intensivlashuviga xizmat qiladi; - Ijtimoiy fanlarni o'qitishda o'sib kelayotgan yoshlarni —ommaviy madaniyat ta'siriga tushib qolish va —Boy berilgan avlod deya atalayotgan yoshlar avlodi yuzaga kelishining oldi olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Саифназаров И. Янги Ўзбекистон: Инсон қадри улуғланган юрт. Т.: —Илм-ЗиyoZakovat 2023, 92-93 бетлар.
- 2, 3,4,7 Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.: —О'zbekiston, 2021. 232-233-234-288-бетлар.

5. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуг халқнинг иши ҳам улуг, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3 жилд. Т.: —Ўзбекистон||2019. 147-бет.
6. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2022 йил 28 январь. //Lex.uz//.
8. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. Т.: —Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти|| нашриёти 2022.
9. <https://ziyouz.uz/hikmatlar/mumtoz-faylasuflar-hikmati/384-322/>